



O'SMIR SHAXSINING RIVOJLANISHIDA USTANOVKANING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Matyoqubova Shohista

O'zbekiston Milliy universiteti

Psixologiya 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5651931>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-oktabr 2021

Ma'qullandi: 25- oktabr 2021

Chop etildi: 30- oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

O'smirlik, ustanovka, mayl, ehtiyoj, his-tuyg'u, emotsiya, xarakter

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'smir shaxsining shakllanishida ustanovkaning o'rni va ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, maqolada ustanovkaning davriy rivojlanishida ehtiyoj va mayllarning ta'siri va o'rni batafsil yoritilgan.

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, ta'lim sohasini bosqichma-bosqich isloh qilish ishiga katta e'tibor berilmoqda. Har tomonlama rivojlangan, ongli barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Chunki, yurtimizning ertangi kuni bugungi yoshlar qo'lidadir. Shuning uchun sog'lom, ongli, bilimdon, dunyoqarashi keng shaxslarni tarbiyalash vazifasi davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-

zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak deb ta'kidladilar². BMT ning o'smirilar muammolari bilan shug'ullanuvchi YUNISEF tashkilotining ijtimoiy monitoring natijalarida ham O'zbekiston bu borada o'ziga xos yutuqlarga erishayotgan davlatlardan biri ekanligi ko'rsatiladi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab

¹ Каримов.И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. Т. Ўзбекистон. 1992. 115-6
Mirziyoev Sh.M., Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq

farovonligi garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yililgiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017 y



yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir”³.

Hozirgi davrda o’smirlarni tarbiyalashning o’ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o’smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to’la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo’llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, balki sinf jamoasi o’rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi. O’smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko’chish jarayoni sodir bo’ladi. O’smirda psixik jarayonlar keskin o’zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, talaba bilan o’qituvchining muloqotida, kattalar bilan o’smirlar muomalasida qat’iy o’zgarishlar vujudga keladi. Bu o’zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug’iladi. Bular avvalo ta’lim jarayonida ro’y beradi: yangi axborot, ma’lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o’smirni qoniqtirmay qo’yadi. Odobli, dilkash o’smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo’pol, serzarda bo’lib qoladi. Kattalarning yo’l-yo’riqlarga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o’smir ularga tanqidiy munosabatda bo’ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko’rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli ob’ektiv va sub’ektiv omillarga ega bo’lishi kerak. boshlaydi, u ayrim ma’lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo’lib

qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O’smir xulqidagi bunday o’zgarishlar tajribasiz o’qituvchi yoki otanani qattiq Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko’tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o’smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, ob’ektlar o’rtasidagi ichki munosabatlarni o’rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko’nikmalarni shakllantiradi, o’zini o’zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi⁴. Hozirgi o’smirlar o’tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o’sish oldinroq namoyon bo’lmoqda. Shu sababli bizda o’g’il va qizlarni 10-11 dan 14-15 yoshigacha o’smirlik yoshida deb hisoblanadi. Venalik psixolog Z.Freyd va uning shogirdlari o’smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o’z mavqeini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go’yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo’lishga, atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Rus psixologlari Z. Freyd nazariyasini mutlaqo asossizligini

³ Каримов.И.А. Баркомол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.: 1997 й. 42-б

⁴ Маклаков А.Г. Общая психология: учебник для вузов. СПб: Питер, 2008.- 283с.



ta'kidlab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanishini asoslab berdilar. Har bir shaxs o'z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy ta'sirlarning ob'yekti hisoblanadi⁵. Shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o'zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik shaxsning psixologik tuzilishini tashkil etadi.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko'rsatib o'tishi lozim⁶. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'quvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi. O'qitishning emosionalligi ta'limning muvaffaqiyatlilikini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emosional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, uni o'quvchilar

yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilar emosional ruhdagi materialni durustroq o'zlashtirib oladilar.

Psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka (ko'rsatma berish) muam mosi hisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan. Odatda, ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyorlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs ya'ni o'smir biron – bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga ruhan tayyor turadi. Ustanovkaning mavjudligi, uning qonuniyatlari eksperimental tarzda ta'kidlab o'tilgan va ilmiy maktab namoyondalari tomonidan aniqlangan. Mazkur tajribada sinaluvchiga ikkita – bittasi kata, ikkinchisi esa kichikroq soqqachani ko'zi yumuq holda uzluksiz bir necha (10-15) marta paypaslab taqqoslash taklif qilinadi. Eksperimentning navbatdagi bosqichida soqqachalar baravariga almashtiriladi, bunda qiziq holat yuz berib, baravar jismlar ham har xil tuyuladi., ya'ni sinaluvchida (illuziya) noto'g'ri aks ettirish holati yuzaga keladi. Bunday psixologik

⁵ E.G'. G'oziev, Umumiy psixologiya O'quv qo'llanma. Toshkent 2002 y

⁶ B. Umarov Psixologiya Darslik Voris nashriyoti. Toshkent – 2012 27 bet



voqeaning vujudga kelishiga asosiy sabab shuki, ob'ektiv jihatdan o'zaro teng soqqachalar taqqoslanganda favqulodda sub'ektiv sharoitda ular bir-biriga teng emas, degan mayl bilan ish tutilganligidir. Ushbu holat oddiyroq qilib tushuntiriladigan bo'lsa, taqqoslash jarayoni ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) asosida amalga oshirilganligi uchun shunday natijaga kelindi⁷. D.N.Uznadzening ta'kidlashicha, insonda ustanovka bilan bog'liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasinigina emas, balki uning periferik qismi faoliyatini ham mahsuli bo'lib hisoblanadi.

O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'proq qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga tarbiyalashga harakat qiladilar. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum tenghuquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi. O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya - qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning hatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar⁸. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning

ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi.

O'smirlar ustanovkalari muhim funksional ahamiyatga ega bo'lib, uning ma'lum bir faoliyatni samarali bajarishga tayyorligi sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar:

- 1) faoliyat amalga oshirilishining qat'iy xarakterini belgilab beradi.
- 2) o'smir shaxsini standart vaziyatlardagi faoliyatlar kechishini erkin xolda nazorat qilish va qaror chiqarishdan ozod qiladi⁹.

Ustanovkaning ko'plab davrlarda uchragani kabi o'smirlik davrida ham uch ierarxik darajadagi faoliyatni tartibga soladi: semantik-munosabatlar umumlashtirilgan bo'lib, shaxsning shaxs uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarga munosabatini aniqlaydi; maqsadli - faoliyatning nisbatan barqaror xususiyatini aniqlaydi va muayyan harakatlar va shaxsning boshlangan ishini oxiriga yetkazish istagi bilan bog'liq; operatsion ustanovka xuddi shunday vaziyatda sub'ektning o'tmishdagi tajribasi, yetarli va samarali xatti-harakatlarning imkoniyatlarini prognoz qilish va muayyan vaziyatda qaror qabul qilish asosida vaziyatni idrok etish va talqin qilishga yordam beradi¹⁰.

⁷ E.G'oziyev. Psixologiya Darslik O'qituvchi nashriyoti. Toshkent 2008 y. 1001 bet

⁸ M.Zufarova. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2010 138-bet

⁹M.Zufarova. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2010 139-bet

¹⁰ G.Baykunosova, G.Ziyavitdinova Umumiy psixologiya (2kitob) Yosh davrlari va pedagogic psixologiya Darslik Toshkent 2020 224 bet



O'smirlik davri xususiyatlarini talqin qilgan olimlarning ta'kidlashicha, o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi. Ushbu o'zgarishlar ta'sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini o'sib borish munosabati bilan

o'zlariga ko'proq ishona boshlaydilar, ular endi oilaviy muammolar muhokamasida ham ishtirok eta boshlaydilar. Aslida o'smir yoshidagi bolalarning psixik holatlarini va psixik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, psixik muammolarini erkin va to'g'ri yechishlari uchun yordam berish, ularga psixologik yondashish zarur. Kichik o'smir yoshdagilar bilan ishlayotganda o'quvchining har bir tashqi va ichki reaksiyasi ortida uning o'z psixologik sabablari borligini bilish muhimdir. Bu "madaniyatsiz", "zararli", "tushunib bo'lmaydigan" deb nom olgan xatti-harakatlar bir qarashda shunday

baholanadi, lekin bu xatti-harakatlar shaxs qaror topishining maxsus bosqichi uchun xos xususiyatdir. O'smirlik davrida, asosan, bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yillarda o'smirlar uchun hayot davomida kerak bo'ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko'rina boshlaydi. Xotira, mexanik xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga ko'tariladi. Nutq rivojlangan, xilma-xil va boy tafakkur esa o'zining barcha ko'rinishlari: harakatli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. O'smirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o'rgatish mumkin. Shuningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi. Demak, o'smirlik davridagi jarayonlar asosan intensivligi va yaqqol namoyon bo'lishi bilan boshqa davrlardan alohida ajralib turadi. Shuning uchun ham o'smirlik davridagi psixologik xususiyatlar alohida ko'rinish kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Ozbekiston Kelajagi buyuk davlat. T.O'zbekiston. 1992.115-b
2. Karimov.I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1997 y. 42 b
3. Mirziyoev Sh.M., Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yililgiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017 y
4. Jumanazarov Yo. Yosh va pedagogik psixologiya. Uslubiy majmua.Namagan 2009. 72-80-153-160. b.
5. Маклаков А.Г. Общая психология: учебник для вузов. СПб: Питер, 2008.- 283с.
6. E.G'. G'oziev, Umumiy psixologiya O'quv qo'llanma. Toshkent 2002 y
7. B. Umarov Psixologiya Darslik Voris nashriyoti. Toshkent – 2012 27 bet



8. E.G'oziyev. Psixologiya Darslik O'qituvchi nashriyoti. Toshkent 2008 y. 1001 bet
9. M.Zufarova. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2010 138-39 bet
10. G.Baykunosova, G.Ziyavitdinova Umumiy psixologiya (2-kitob) Yosh davrlari va pedagogic psixologiya Darslik Toshkent 2020 224 bet